

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIGI ISTIQBOLLARI

Saxipjamal Djoldasova

*IIV Tashkiliy departamenti Yuridik ta'minlash boshqarmasi
bo'lim boshlig'i, podpolkovnik, yuridik fanlar doktori, dotsent*

Jalinbek Toxsabinov

*IIV Jinoyat qidiruv departamenti
tezkor xodimi, podpolkovnik*

Annotatsiya. Maqolada xorijiy davlatlarda ularning milliy urf-odatlarini, huquqiy tizim va davlat boshqaruvi, jinoyatchilikka qarshi kurashishda politsiya organlarining faoliyat strategiyasi va taktikalaridagi o'ziga xos xususiyatlari tahlili keltirilgan, ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini amalga oshirish muammolari keltirilgan va takliflar ilgari surilmoqda.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, jamoatchilik, hamkorlik, fuqarolik jamiyati institutlari, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarni olini olish, ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyat.

Abstract. This article examines the strategies and tactics of the police in combating crime, taking into account national traditions, the legal system and the peculiarities of public administration. In addition, the article identifies problems in the interaction of internal affairs bodies with civil society institutions and suggests ways to solve them.

Keywords: internal affairs bodies, the public, cooperation, civil society institutions, crime fighting, crime prevention, socially oriented activities.

Inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish hamda himoya qilish har bir demokratik huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda davlat organlari, tashkilot va muassasalarning qonunchilikda nazarda tutilgan vakolatlari bilan bir qatorda, jamoatchilik bilan hamkorlik ishlarini tashkil qilishlari juda muhimdir.

Bu borada huquqni muhofaza qilish organlari, jumladan ichki ishlar organlarining jinoyatchilikning oldini olishda, o'z faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib, jamoatchilik bilan hamkorligi masalasi davlat va jamiyat uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, ichki ishlar organlarining o'ziga xos vakolatlari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tatbiq etilishi hech kimga sir emas [7].

XX asrning ikkinchi yarmi, asosan, 80–90-yillarda ko'pgina davlatlarda politsiya tizimi tubdan isloh qilindi. "Qoralovchi" tuzilmadan aholi bilan yaqindan muloqotda bo'ladigan, ularning manfaati yo'lida xizmat qiladigan ijtimoiy yo'naltirilgan "community policing" (politsiya aholi xizmatida) g'oyasi asosida faoliyat yurituvchi organ sifatida o'zgartishga

qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Politsiya tizimidagi ushbu o'zgarishlar, avvalo, ularning ishlash usuli va vositalari, mazmuni va mohiyatini tubdan qayta ko'rib chiqib, fuqaro va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda jinoyatchilikning oldini olishga yo'naltirilgan faoliyatga aylantirildi.

Xususan, AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa, Osiyoning ayrim davlatlarida o'sha davrlarda avj olgan jinoyatchilik, ommaviy tartibsizlik politsiya organlari tomonidan "inqirozli" choralar, xususan, qonuniy choralarni kuchaytirish, politsiya xodimlarining sonini ko'paytirish, ularning ijtimoiy kafolatlarini yanada kengaytirish, ommaviy axborot vositalari orqali politsiyaning obro'sini ko'taruvchi targ'ibot ishlarini amalga oshirish choralari yetarli darajada samara bermadi. Aholi o'rtasida esa bunday choralar aksincha ta'sir ko'rsatib, ularga nisbatan norozilik va ishonchsizlik kayfiyatini vujudga keltirdi.

"Community policing" g'oyasi jamoat tartibini saqlash organlarining faoliyatini tubdan yangilashga qaratilgan eng ilg'or nazariya va amaliyotni mujassam etganligi bois, uni o'z

tajribasida qo'llagan davlatlarning jamiyatga integratsiyalashuvi oson kechdi. Politsiya organlari faoliyati faqat jinoyatchilik bilan kurashishdan iborat bo'lib qolmasdan, avvalo, aholi bilan yaqindan hamkorlik qilish orqali jinoyatlar profilaktikasi, jinoyatlarning oldini olishga qaratildi.


Sherikchilik doktrinasiga tayangan politsiya tizimida kasbiy tayyorgarlik masalasi ham tubdan qayta ko'rib chiqildi. Xususan, AQSH, Yaponiya va Yevropa davlatlarining politsiya akademiyalarida politsiya xodimlarini tayyorlashda har xil kategoriyadagi fuqarolar (jabrlanuvchi, guvoh, aqli noraso, giyohvand va boshqalar) bilan professional muloqot qilishni o'rgatadigan zamonaviy ijtimoiy-psixologik dasturlar joriy etildi [2]. Keyinchalik bu amaliyot quyidagi samarali natijalarga, jumladan qayta murojaatlarning va politsiya kasbida stress holatlarining kamayishiga, aholining politsiyaga ishonchi hamda politsiya bilan hamkorlik qilish istagining ortishiga olib keldi [3].

"Community policing" g'oyasi asosida isloh qilish turli davlatlarda turlicha kechdi. Buning sababi milliy urf-odatlar, huquqiy tizim va davlat boshqaruvi, jinoyatchilikka qarshi kurashishda politsiya organlarining faoliyat strategiyasi va

taktikalaridagi o'ziga xos xususiyatlardir. Quyida ayrim davlatlarning "community policing" g'oyasi asosida amalga oshirgan islohotlariga to'xtalib o'tamiz.

AQSH: ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuv. AQSH politsiya tizimi uch pog'onali (mahalliy, shtatlar, federal) bo'lib, xodimlarning asosiy qismi (60 foizi) mahalliy politsiya tarkibida shakllantirilgan va aholi bilan o'zaro hamkorligi ushbu tizimning asosini tashkil qiladi [4]. O'tgan asrning 90-yillarida AQSHda jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun mavjud barcha innovatsion resurslar jalb qilingan. Xususan, birinchidan, aholi bilan hamkorlikda ish olib boradigan ijtimoiy yo'naltirilgan xizmatga aylantirildi, ikkinchidan, aholi bilan hamkorlikda "yumshoq" ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyat bilan bir qatorda, alohida turdagi jinoyatlarga qarshi murosasiz kurashish orqali jinoyatlarning oldini olish, uchinchidan, ommaviy axborot vositalarida ushbu doktrina aholi o'rtasida "huquqbuzarlikni bartaraf etish, jinoyat uchun jazo muqarrar" degan fikrning shakllanishiga qaratilgan.

AQSHning Adliya statistik byurosi (BJS) ma'lumotiga ko'ra, olib borilgan islohotlar natijasida oxirgi 10-15 yilda jinoyatlar soni kamayganini kuzatish mumkin [9].




Shvetsiya: muammoviy yo'naltirilgan yondashuv. Jinoyatlarning oldini olishda Yevropa Ittifoqi davlatlarida "Community policing" konsepsiyasiga asoslangan politsiya faoliyati Shvetsiya tajribasida samarali amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu konsepsiyani joriy qilish uchun aholi bilan faol hamkorlik talab etilar edi. Shu bois, xodimlarni profes-

sionalligi va ijtimoiy-psixologik jihatlariga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu jihatlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: oliy ma'lumot, kadrlarni sifatli tanlash, etika standartlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi hamda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilishi (chunki "qonunni hurmat qilish fuqaroni hurmat qilishdan boshlanadi") kabi talablar shular jumlasidandir.

Politsiya xodimlarining intellektual salohiyatini oshirish, ish haqlarini ko'tarish orqali imijiga ta'sir qilib, ijtimoiy maqomi (obro'si) ko'tarilishiga erishildi. Aynan Skandinaviya davlatlarida "xodimlarning ta'lim indeksi hamda madaniyat va ma'rifat darajasi yuqori bo'lsa, ularning kasbiy faoliyati samarasi ko'tarilib boradi", degan qonuniyat asosida islohotlar olib borildi.

Shvetsiya politsiyasi faoliyati tajribasida muammoviy-yo'naltirilgan yondashuv "problem-oriented policing" aholining politsiyaga murojaat qilish sabablari va salbiy faktlarni bartaraf qilishga qaratilgan. Jinoyatchilik va uning oldini

olish bo'yicha Shvetsiya milliy kengashi (BRA) ma'lumotiga ko'ra, globallashtirish jarayonida statistik ma'lumotlar sifatida yangi turdagi jinoyatlar holati kiritilganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, plastik karta, onlayn kredit (oldi-sotdi), internet-xarassment bilan bog'liq jinoyatlar shular jumlasidandir. Shu bois, aholi o'rtasida jinoyatning jabrlanuvchilariga aylanib qolish ehtimoli o'tgan yillarga nisbatan ko'paygani bilan, jinoyat odil sudlovga nisbatan (politsiya, prokuratura, sud, JIEM va probatsiya xizmati) ishonch pasaymaganini ko'rish mumkin.



*200 ming odam hisobida

Fransiya: "xavfsizlik uchun hamkorlik" doktrinasi. O'tgan asrning 90-yillarda Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlari kabi Fransiya ham aholi bilan hamkorlik qilish prinsiplariga tayangan jamoat tartibini ta'minlashda yangicha yondashuv konsepsiyasi asosida islohotlar amalga oshirildi. "Community policing" g'oyasi "yaqin politsiya" (police de proximite) fransuz talqinida amalga oshirildi. Bunda, politsiya faoliyati ijtimoiy xizmat ko'rinishida aholiga xavfsizlikni ta'minlash sohasida xizmatlar ko'rsata boshladi. Natijada politsiya faqat jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi, balki tartib va tinchlikni ta'minlovchi organ sifatida namoyon bo'ldi[5]. "Yaqin politsiya" g'oyasini amalga oshirish mexanizmlari 1997–2002-yillar orali-

g'ida "Xavfsizlik to'g'risida"gi qonunda o'z aksini topgan edi. Milliy politsiya va jandarmeriyani boshqarishni muvofiq-lashtirishni ham o'z ichiga olgan bu g'oya politsiya va aholi o'rtasida yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmadi va islohotlar oxirgi nuqtasiga yetmasdan qolgan. 2002-yildan boshlab Fransiya hukumati yana an'anaviy "qattiq politsiya" va "aniq natija" rejimiga o'tib olgan edi. Darhaqiqat, ushbu davrda qotillik jinoyatlarining ochilish statistikasi ancha yaxshilandi (2007-yilda 88 foizni tashkil etgan). Ammo, aholi va politsiya o'rtasida katta jarlik yana paydo bo'lgan. Demak, ushbu rejim vaqtincha samara berish mumkinligini yana bir bor isbotladi.

2008-yildan boshlab fuqaro va politsiya o'rtasida "o'zaro ishonch shartnomasi" o'rnatishga qaratilgan islohotlar boshlandi. Aholi bilan politsiya o'rtasida "ijtimoiy masofa" yaqinlashgani bilan mamlakatda jinoyatchilik holati, ya'ni statistikasi katta o'zgarishga uchramadi.

2018-yildan boshlangan "Partenariat pour la sécurité", ya'ni "Xavfsizlik uchun hamkorlik" yangi turdagi politsiya tizimi fuqarolik jamiyati va politsiyaning birgalikda "xavfsizlikni yaratish"ini nazarda tutadi. Bunda jamoat xavfsizligini ta'minlash nafaqat politsiya organlarining majburiyati, shuningdek jamoatchilikning ham zimmasidadir. 2021-yilda mamlakatda huquq-tartibotni saqlab qolish bo'yicha politsiya tuzilmalarining huquqiy, tashkiliy va texnik imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan "Erkinlikni

saqlab qolish uchun umumxavfsizlik to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun ikkita muhim masalani qamrab oldi. Birinchidan, fuqarolarning erkinliklarini saqlagan holda Milliy politsiya va jandarmeriyaning tezkor kuzatuv uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish bo'yicha vakolatlari kengaytirildi, ikkinchidan, "xavfsizlikni yaratish" uchun politsiya tuzilmalariga fuqarolik jamiyatini jalb etish imkoniyati berildi va bu asosan mahalliy politsiya faoliyatida kengdan foydalanildi [1].

Fransiya Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 2016–2022-yillar davomida har 1000 kishiga 48 ta jinoyat va huquqbuzarlik to'g'ri kelishi ko'rsatgichi yetti yil davomida saqlanib qolingani. Bundan 2020-yildagi pandemiya davri istisnodir [11].



Yaponiya: zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va asrlar davomidagi an'analar. Jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lmagan ushbu davlatda politsiya faqat Hukumatga bo'ysunuvchi idora hisoblanib, poytaxt va prefekturalarda okrug va tuman politsiyalari politsiyaning an'anaviy tizimi "statsionar budka" ("Koban")lardan tashkil topgan. Masalan, Tokioda mavjud 110 politsiya bo'linmalarining har biri 10–15ta "Koban"lardan iborat va birlamchi-mahalliy darajada jamoat tartibini

saqlash vazifasini bajaradi [3]. Har bir politsiya bo'linmasida "Aholi bilan aloqani ta'minlash kengashi" faoliyat yuritadi. Jamoat tashkilotlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, katta turar joy majmualari ma'muriyati, volontyorlar guruhlarining vakillari ushbu kengashlarning a'zolari sifatida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy nazoratning norasmiy shakllarini qo'llash, ijtimoiy foydali xulq-atvor stereotiplarini shakllantirishda oila siyosatiga e'tibor qaratish, jamoatchilik tomonidan jinoyatchilarni resotsiali-

zatsiyalash bo'yicha maxsus choralarni ko'rish kabi ishlar ijtimoiy yo'naltirilgan yapon politsiya tizimini yuqori darajaga ko'taruvchi omillardan hisoblanadi.

Milliy politsiya agentligining ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi olti yil davomidagi jinoyatchilik darajasi 75 yil ichidagi eng past ko'rsatgich hisoblanadi[11].

O'zbekiston: ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuv. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash asosiy maqsadlar qatorida belgilandi.

Bunda asosiy urg'u ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodimi tomonidan "Xalq manfaatlariga xizmat qilish"ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlarga qaratildi.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi talablari qayta ishlab chiqildi. Endilikda, ichki ishlar organlari xodimlarini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining ishonchiga erishish, tizimda sodir etilishi mumkin bo'lgan nojo'ya xatti-harakatlar, suiiste'molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish, huquq-tartibot tizimi obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik bosh maqsadga aylantirildi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar "ta'lim muassasasidan – xizmatning oxiriga qadar" tamoyili asosida tizimli va uzluksiz tashkil etildi. 2023-yil 1-sentyabrdan boshlab huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l-patrul va patrul-post xizmati bo'linmalari xodimlarini "Fuqarolar bilan ishlash moduli" bo'yicha uzluksiz o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Tizimda jamoatchilik bilan hamkorlik asosan ichki ishlar organlarining tayanch punktlari tomonidan amalga oshiriladi. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 15-moddasiga muvofiq, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari)ning ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan hamda qishloqlar, ovullar va mahallalarda jamoat tartibi saqlanishini, fuqarolar xavfsizligini, huquqbuzarliklar profilaktikasini, jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita ta'minlaydigan asosiy quyi bo'g'ini [6] hisoblanadi.

Shu bilan birga, tizimda jamoatchilik bilan hamkorlik masalasi jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ–10-son qarori bilan Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarida jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblangan, soha olimlari, faxriylari va jurnalistlardan iborat jamoatchilik kengashlarini tuzish vakolati berildi. Jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari sifatida:

ichki ishlar organlari faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, soha bo'yicha ijtimoiy fikrni o'rganish va tizimli monitoring olib borish;

ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ijtimoiy fikr va jamiyat manfaatlarini hisobga olinishini ta'minlash choralarni ko'rish;

ichki ishlar organlari faoliyatidagi korrupsiya holatlari bo'yicha Internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan xabarlarni batafsil o'rganish va natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish etib belgilandi[8].

Umuman olganda, xorijiy davlatlarida politsiya tizimi islohotlari ularni "krizis", "qoralovchi" tizimdan "ijtimoiy yo'naltirilgan" tizimga aylantirgani turli mamlakatda turli xil tendensiyalarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunda, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatlarning oldini olish – ijtimoiy yo'naltirilgan politsiya tizimining asosiy vazifasi ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Politsiya faoliyatining taktikasi jamoatchilik bilan birga jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan bo'lib, natijasi jinoyatlarning umumiy ko'r-

satgichiga ijobiy ta'sir qilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Biroq, axborot texnologiyalari va Internetdan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlar soni ko'payotganligini kuzatish mumkin. Bunday jinoyatlarning oldini olish uchun politsiya organlarining boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi masalasini o'rganib chiqish kerak bo'ladi.

Jinoyatchilikning oldini olishda ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligi masalasida rivojlangan davlatlarning tajribasi tahlili natijasida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

birinchidan, bugungi kunda jamiyat (aholi) huquqni muhofaza qiluvchi organlardan faoliyati davomida yoki vakolatlarini amalga oshirishda, avvalo, inson huquqlarini himoya qilish va erkinliklarini ta'minlab berishni, ya'ni "qonunni hurmat qilish – fuqaroni hurmat qilish"dan boshlanishini kutadi;

ikkinchidan, dunyoda politsiya tuzilmalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ularni "qorlovchi", "krizis" tuzilmadan aholi bilan yaqindan muloqotda bo'ladigan, ularning manfaati yo'lida xizmat qiladigan ijtimoiy yo'naltirilgan "community policing" (politsiya aholi xizmatida) g'oyasi asosida faoliyat yurituvchi organ sifatida qayta shakllantiradi;

uchinchidan, davlatda "xavfsizlikni yaratish" uchun politsiya tuzilmalariga fuqarolik jamiyatini jalb etish imkoniyati berildi. Buning uchun asosiy kuch (xodimlar) politsiyaning quyi pog'onasiga berildi;

to'rtinchidan, jinoyatlarning oldini olish – ular bilan kurashishning eng ilg'or usuli. Shu bois, jinoyatlar profilaktikasining huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik va amaliyotda katta o'zgarishlar ro'y berdi;

beshinchidan, jamoat monitoringi mexanizmlaridan keng foydalanildi. Xususan, politsiya va uning xodimlarini jamoat tomonidan baholash tizimi yo'lga quyilganligi, avvalo, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini obyektiv baholash imkonini berdi;

oltinchidan, politsiya faoliyatida jamoatchilik fikrini o'rganish politsiya organlari imijini ko'tarishda foydalaniladi. Politsiya va jamoatchilikning hamkorligi operativ ravishda muammolarni aniqlash va joyda hal qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimida 2016-yildan boshlangan islohotlar uni ijtimoiy yo'naltirilgan tuzilmaga aylantirishga qaratilgan bo'lib, ko'plab harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu borada xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy qonunchilik hamda amaliyoti bo'yicha tajribalar tadqiq qilinganligi ma'lum. Asosiysi, endilikda davlat ehtiyojlari bilan bir qatorda, jamiyatning manfaatlarini himoya qilish tizim faoliyatining bosh maqsadiga aylantirildi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari faoliyatida aholi, jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlik turli shakllarda (rasmiy va norasmiy) amalga oshirilishi ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi

Foydalanilgan manbalar

1. Гаврилов К.Г., Гаврилова Т.В. Полиция, жандармерия, национальная гвардия: реформа полицейской системы Франции как реализация доктрины “Партнерство во имя безопасности” // Электронный научный журнал “Наука. Общество. Государство», 2022. – Т. 10. – № 2. – С. 19. <http://esj.pnzgu.ru>.
2. Кисилёв А.К. Общественность и полиция в Европе: опыт последнего десятилетия // Административное право и процесс, 2012. – № 11. – С. 54-58.
3. Кораблев Е.С. Социально-ориентированная стратегия деятельности полиции как фактор ее профессиональной эффективности // Вестник Воронежского института МВД России, 213. – № 1. – С. 148-155.
4. Курлович П.Н. Полиция в правоохранительной системе США // Вестник Казанского юридического института МВД России, 2013. – № 12.
5. Fransiya politsiyasi tizimi juda murakkab bo'lib, jamoat tartibini saqlashda markazlashgan dualistik tizim, ya'ni politsiya va jandarmeriyadan iborat bo'lsa, mahalliy politsiyaning ham o'ziga xos funksiyalari mavjud // <https://www.interieur.gouv.fr/Le-ministere/Police-nationale>.
6. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'RQ-407-son qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/3027843>.
7. “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16–17-moddalarida 50dan ortiq majburiyat va 40dan ortiq huquqlar belgilangan. <https://lex.uz/ru/docs/3027843>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ–10-son “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6364837>.
9. Trend of Violent Crime from 2000 to 2022. // <https://cde.ucr.cjis.gov/LATEST/webapp/#!/pages/explorer/crime/crime-trend>;
10. https://www.observationsociete.fr/modes-de-vie/divers-tendances_conditions/evolutioninsecurite/.
11. https://www.npa.go.jp/english/crime_situation_in_2022_en.pdf

